

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

MUQADDAS TUYG‘ULAR TALQINI

Umidaxon Mansurova,
328-umumta’lim maktabining
ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada 20-asrning yorqin vakili Odil Yoqubovning “Muqaddas” nomli qissasi tahlilga tortilgan. Asar bosh qahramonlari Sharifjon va Muqaddaslarning fojiali sevgi tarixi, shuningdek korrupsiyaning inson taqdiriga ta’siri haqida hikoya qilingan va didaktik tahlil metodi asosida o‘rganilgan.

Atoqli so‘z san’atkori Odil Yoqubov asarlarining yetakchi jihatlaridan biri inson ruhiyatini, uning xarakter qirralari, psixologiyasini bor bo‘yicha mahorat bilan tasvirlay olishida ko‘rinadi. Adib dastlabki asarlaridayoq badiiyat uchun eng zarur bo‘lgan inson qalb dramasini ma’naviy olam bilan bog‘lab talqin etishida ko‘zga tashlanadi. Ma’naviy olam keng tushuncha. Unda millatning o‘zligi, imon-e’tiqodi, yashash prinsiplari, halol-pokdomonligi, diyonati, jo‘mardligi, qalb go‘zalligi, bir so‘z bilan aytganda, jamiki insoniy tuyg‘ularni ulug‘lovchi go‘zal xislatlar mujassam. Ayni paytda hayot ham, uning asosini belgilovchi odamzod ham shunday yaratganki, har qadamda ayni go‘zal xislatlarning ziddi bo‘lgan noinsoniy tuyg‘ular – e’tiqodsizlik, diyonatsizlik, xiyonat bilan to‘qnash kelasiz, ular bilan munosabatga kirishasiz: goh murosasiz, goh murosali hayot kechirasiz.

Sho‘ro davrida yaratilgan asarlarda ma’naviy olam qirralari ko‘proq ijtimoiy voqelik fonida, voqelikka faol munosabatda, odamlarning o‘zaro muloqotlari jarayonida namoyon bo‘lardi.

Mana shunday asarlardan biri Odil Yoqubovga shuhrat keltirgan va barcha kitobxonning mehrini birdek qozongan “Muqaddas” qissasidir. Yozuvchi bejizga asarini “Muqaddas” deb nomlamagan. Bu o‘rinda qissa nomi faqat ismni anglatib qolmay, balki ma’naviy olamga daxldor bo‘lgan diyonat, odamiylik, sadoqat va muhabbat kabi muqaddas tuyg‘ular bilan uzviy bog‘langan.

O‘zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov mazkur qissa haqida shunday yozadi: “Odil Yoqubov ham o‘z ijodi davomida bir qancha eskirmaydigan, vaqt-soati o‘tganday ko‘rinsada, kitobxonning koriga yarayberadigan asarlar yaratish baxtiga muyassar bo‘lgan adibdir. Shunday asarlaridan biri “Muqaddas” qissasidir.

Juda yaxshi esimda - qissa bosilib chiqishi bilan qo‘lma-qo‘l bo‘lib ketdi, og‘izga tushdi-ko‘chada ham, ishda ham, maktablarda ham, institutlarda ham, qishloqda ham, shaharda ham, to‘rtta odam to‘plansa albatta, “Muqaddas” to‘g‘risida gurung boshlanadi. O‘shanda yozuvchi qissa to‘g‘risida kitobxonlardan bir nechta qop maktub olgani juda yaxshi esimda. Xo‘sh, kelajak haqida yorqin orzular bilan

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

o‘qishga kelgan, lekin hayotdagi birinchi mustaqil qadamidanoq qattiq turtilgan, o‘qishga kirmay orzulari chil-chil bo‘lgan oddiy bir qizaloq Muqaddasning taqdiri o‘shanda nimasi bilan o‘n minglab kitobxonlarni rom qilgan edi? Qanday kuchki, bugun ham jozibasini yo‘qotgan emas? Buning siri shundaki, qissa o‘sha kezlari ancha keng tarqalgan qoliplardan chekinib, inson hayotining azalgi qadriyatini, insonni inson qiladigan mezonlarini ulug‘lab yozilgandi...”¹ Darhaqiqat, Odil Yoqubovning “Muqaddas” qissasida bosh qahramon Sharifjon va uning sevgilisi Muqaddasning hayot yo‘lidagi ilk qadamlari, bu yo‘lda turli-tuman sinovlar qarshisida ba‘zan ojiz, ba‘zan nepkin kurash jarayonlari, bu jarayondagi orzu-umidlari, g‘am-tashvishlari, o‘y-xayollari, vijdon degan adolat tarozisi oldidagi burchni qanday ado etishlari, xullas, adolat va adolatsizlik o‘rtasidagi qalb ziddiyatlari samimiy hikoya qilingan. Shuningdek, asarda o‘tgan asrning oltmishinchi yillari muhiti ham o‘zining realistik talqiniga ega. Bosh qahramon, ya’ni Sharifjon qissada roviy vazifasini bajargan. Yozuvchi voqea va hodisalarga, qahramonlarning hayotiga sirdan passiv kuzatuvchi sifatida ishtirok etsa-da, lekin voqealar tizimini, dramatismni aniq bayon tasvir etganki, bu hol kitobxonni rom qilib, o‘ziga ergashtira olganki, natijada o‘qiguvchi kitobxon ham barcha voqea va hodisalarga Sharifjonning nigohi bilan qaraydi, unga qo‘shilib sevinadi, payti kelganda iztirob chekadi.

Sharifjon mehnatdan qochmaydigan vijdonli bola. Lekin u aksariyat yoshlar kabi o‘z baxtini o‘qib, ilm olib topaman, deganlar xilidan emas. U ko‘proq o‘qish bilan ishni baravar olib borib, jamiyatda o‘z o‘rnini topishga ahd qilgan yoshlar toifasidan. Shu maqsadda u mustaqil hayotini marhum otasi mehnat qilgan zavodda ishlash bilan boshlaydi. Ishdan mehnat ta‘tilga chiqqan Sharifjon onasi va o‘gay otasining: “Institutga topshirib ko‘r, kira olsang, yaxshi, kira olmasang sendan nima ketadi?” degan qistovi bilan o‘qishga hujjat topshiradi. Institutda Muqaddasni ko‘rib, yoqtirib qolgan Sharifjon u bilan birga o‘qishni orzu qilib qoladi. Mana shu nuqtadan boshlab Sharifjon ma’naviy olamini namoyon etuvchi, o‘zligini, yashash prinsiplarini belgilovchi sinov davri boshlanadi. Yozuvchining mahorati shunda ko‘rinadiki, mana shu sinovni Sharifjon va Muqaddaslar uchun ham, o‘sha davr uchun ham xarakterli bo‘lgan voqea – endi-endi urf bo‘la boshlagan, keyinchalik esa jamiyat uchun chinakam illatga aylangan, korrupsiyalashgan o‘qishga kirish jarayoni voqealari, tanish-bilishchilik, oshna-og‘aynigarchilik illatlari tasviri bilan bog‘laydi. Yosh bo‘lishiga qaramay halol-pokiza hayotni, mehnat orqali erishiladigan baxtni orzu qiladigan Sharifjon Muqaddasga bo‘lgan tuyg‘ulariga bo‘ysinib, azbiroyi kunda

¹ Ozod Sharafiddinov “Ijodni anglash baxti”, “Sharq” nashriyoti, 2004-y, 588-bet.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

uning yonida bo‘lish uchun o‘gay otasining yordamiga rozi bo‘ladi. Muhimi shundaki, yozuvchi asarda tanish-bilishchilik illatini, uning hayotiy asoslarini shu bir kichik epizod orqali jonlantirar ekan, uning faqat jamiyat hayotidagi buzg‘unchi oqibatidagina emas, balki katta hayotga endigina qadam qo‘yayotgan yoshlar ma‘naviyatida sodir bo‘layotgan ayanchli qismatidan ham ogoh etadi. Yozuvchi ushbu voqeani, uning Sharifjon tomonidan qabul qilinishi voqealarini ko‘yidagicha jonli manzaralarda aks ettiradi.

“– Beshmi? –deb so‘rashdi. – Shunaqaga o‘xshaydimi ? – dedim men. Oyim peshonamdan o‘pdi. Dadam esa yostiqqa qayta yonboshlarkan: – Ana ko‘rdingmi, kecha o‘rtoqlarim bilan gaplashib qo‘yganman, desam ishonmovding, – dedi qo‘liga gazetasini olib...²

Kitobxon Salim Karimovich timsolida o‘z davrining o‘rtamiyona, oilaviy muammolarda murosasoz, pedagog sifatida o‘zini juda ham namoyon etishga qodir bo‘lmagan inson sifatida ko‘radi. U asarda o‘zining institutda ishlashidan foydalanib, xotining amriga bo‘ysinib nopok ishga qo‘l urgan shaxs sifatida kelsa, boshqa tomondan o‘g‘lining o‘gayligini bildirmagan, barcha ishlarni uning kelajagi uchun qilayotgan mehribon ota timsolida ham his etish mumkin. Onasining Sharifjonga ko‘rsatgan maktubidan shu narsa aniq bo‘ladiki, uning o‘qishga kirishi, o‘qib injener bo‘lishi otasining vasiyati ekan. Yozuvchi qissaning leymotiviga aylantirgan g‘oyaviy motivga ko‘ra, bu vasiyatni amalga oshirish uchun tanlangan yo‘l, ya‘ni Sharifning ham, onasi va Salim Karimovichning ham nopok ishga qo‘l urishini, qaysi yo‘l bilan bo‘lsa ham o‘z maqsadlariga erishishga intilishini oqlab bo‘lmaydi.

Albatta, muhabbat asiriga aylangan har bir inson o‘z sevgisi uchun kurashishi, qanday qilib bo‘lmasin o‘z maqsadiga erishishga intilishi tabiiy. Sharifjon ham o‘zi bilmagan holda nopok ishga qo‘l uradi: otasi do‘stlari bilan kelishib, uning ishini to‘g‘irlashadi. Bu ish aynan Muqaddasning kelajagi, uning taqdiri bilan bog‘liq ekanligini juda kech tushundi, tushunganda esa kech bo‘ldi. Uning maqsadi faqat bitta edi: mehnatdan qochish emas, balki Muqaddas bilan birga o‘qish. Yozuvchi haqiqat ayon bo‘lgan daqiqalarni ishonarli va jonli tarzda chiza oldi. Bu esa qahramonlar bilan birgalikda kitoxonni ham hayajonga soladi: “– Bu yigitcha sizning o‘rningizga kirganini bilasizmi? –deb so‘radi... Qattiq seskanib ketdim, “yalt” etib Muqaddasga qaradim. U ham menga qaradi. Allaqanday qo‘rqib, nimadandir cho‘chib qaradi. Iztirob chekkan katta qora ko‘zlari go‘yo yordam so‘rayotgandek javdirab, mo‘ltirab turar, qoshlari alamli chimirilgan edi. Bu ko‘zlar mendan Azizov aytgan dahshatli haqiqatni inkor etishimni so‘rar, yalinib yolvorar edi. Men

² Odil Yoqubov “Tilla uzuk” T.: “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 64-65- betlar

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

esam...men esam jonimdan, xayotimdan ham ortiq ko‘rgan sevgilimning chehrasida aks etib turgan bu iztirobiga, bu nidosiz savoliga nima ham derdim? Sekin boshimni egdim...”³

Muqaddas ishonib, suyanib yurgan tog‘, ya‘ni adolat quladi. Uni tiklashga harakat qilgan Sharifjon esa, Azizov domlaning ta‘biri bilan aytganda, unga yana “mehribonlik” ko‘rsatadi. Aldanganini bilgan Muqaddas Sharifjonga yozgan maktubida uning o‘qishga qabul qilinganligi haqidagi buyruqni olib kelsa ham o‘qimasligi, bu bir oy unga katta saboq bo‘lganligi aytadi. O‘z aybini tushunib yetgan Sharifjon esa o‘qishni xohlamaydi. Zavodga ishga ketadi.

Shu o‘rinda sex boshlig‘i Sulaymon aka obraziga alohida e‘tibor qaratmoq lozim. Bu kishi hayotga o‘z nuqtayi nazari bilan emas, balki o‘sha davr mafkurasining nuqtayi nazaridan qaraydigan shaxs. Ya‘ni baxtni o‘qish, yoki ilm olib, o‘zlikni anglashda emas, balki mehnat qilib hayotda o‘z o‘rnini topishda deb hisoblaydi. U Sharifjonni sirdan o‘qib, “ilg‘or mehnat brigadasi” da ishlashga da‘vat etadi. Bu hol Sharifjon tilidan quyidagicha bayon qilinadi: “Hali ko‘p yillar o‘tadi, ko‘p suvlar oqib ketadi. Shunda bizning ham ko‘zimiz ochiladi. Lekin u mahallar, oltmishinchi yillarning boshlarida uydirma shior atrofida qancha shov-shuvlar, qancha dabdabalar bo‘lgan, bu haqda yozmagan na birorta gazeta, na radio, na televideniye qolgandi. Hayot o‘zi shunaqa dabdabalardan iborat edi. Bizku yosh edik. Ammo Sulaymon akachi? Nahot hayotning hamma achchiq-chuchuklarini ko‘rgan odam ham ishongan bo‘lsa o‘shanda”⁴

Sevgi tuyg‘ular ichida eng musaffo va muqaddas tuyg‘ulardan biridir. U adolatsizlikni, nohaqlikni va xiyonatni kechirmaydi. Sevgi oldida qilingan kichik bir xato endigana mustaqil hayotga qadam qo‘yayotgan qancha yoshlarning hayotini o‘zgartirib yuborishi mumkin. “Muqaddas” qissasi yozuvchi ijodida axloq prinsiplarini shakllantiruvchi asar sifatida ham alohida o‘rin tutadi. Yuqorida ta‘kidlanganidek, “Muqaddas” so‘zi faqat qissa qahramoniga qo‘yilgan nom emas, balki adolat, ishonch, diyonat, vijdon, iymon-etiqod kabi tuyg‘ularning muqaddasligiga ham ishoradir. Yozuvchi adabiyot hayotning, hayotdagi insonlar hayotining bir parchasi, kichik bir in‘ikosi ekanligini kitoxonga ko‘rsata bilganligi uchun ham shu darajada mashhurlikka erishdi. Bu qissa haqida Chingiz Aytmatov shunday fikr bildirgan edi: “- Adil! Kechroq bo‘lsa ham “Muqaddas”ni o‘qidim. Mening “Jamila” va “Sarviqomat dilbarim” ertaroq rus tilida chiqdi. Aslida sening “Muqaddas”ing avvalroq chiqqanda sen mendan ham mashhur bo‘lib ketarding”⁵

³ Odil Yoqubov “Tilla uzuk” T.: “Yangi asr avlodi” nashriyoti, - 138-139-betlar

⁴ Odil Yoqubov “Tilla uzuk” T.: “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 78 bet.

⁵ Yoqubova M. Yoqubov I. “Ulug‘ va sadoqatli muhabbat”. 85-bet

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Atoqli yozuvchining bunday samimiy e’tirofi ham qissaning badiiy qiymatini belgilab kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Omanova, M. (2024). IMPORTANCE OF VOICE IN EXPRESSIVE READING. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(1), 125-128.
2. Omanova, M. (2024). NIZOMIY GANJAVIY MEROSINING ALISHER NAVOIY IJODIGA TA’SIRI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(20), 24-27.
3. O‘razbayeva M. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. *Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi nomli ilmiy konferensiya materiallari to‘plami*. – Toshkent. 2024 -yil.
4. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. *Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior*. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
5. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go‘zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. *Journal of Advanced Zoology*. 2023. 2184-2192 p.
6. Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence // *Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).
7. Omanova, M. A. (2023). Perfect human interpretation in Alisher Navoy’s creation. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(1), 346-347.
8. Qalandarova, D. Z. (2024). EPIK JANRLARNING XORIJDA TADQIQ ETILISHI MASALALARI (“Alpomish” dostoni misolida). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(20), 79-83.
9. Atabayeva, G. Z. (2024). NIZOMIY GANJAVIYNING “XAMSA” ASRIDAGI OBRAZLAR TAHLILI VA GENEZISI. 2-SBİN, 1-YIL YANVARYA 2024-GO-1-YIL KISHM, 12.
10. Burxanova, Feruza. "JAHON ADABIYOTI NAMUNALARI NAZAR ESHONQUL NIGOHIDA." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 4.20 (2024): 68-78.